



XUSUSIY MAKTABLARDA O‘QUVCHILARDA LIDERLIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH: IB, MONTESSORI VA STEM MODELLARINI QIYOSIY TAHLILI

Mansurjon Zokirjonov Botir o‘g‘li

Namangan Najot – Ta’lim maktabi

E-mail: zokirjonovmansurjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy maktablarda o‘quvchilarda yetakchilik (liderlik) kompetentsiyasini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari Xalqaro bakalavriat (International Baccalaureate, IB), Montessori va STEM ta’lim modellari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, XXI asr ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar nafaqat fanviy bilimlarni, balki tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada samarali ishlash, muloqot va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi yetakchilik ko‘nikmalarini ham izchil rivojlantirishni taqozo etadi. Maqolada har bir modelning falsafiy-nazariy asoslari, pedagogik mexanizmlari va ularning o‘quvchida liderlik kompetentsiyasini shakllantirishga ta’siri ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritiladi hamda qiyosiy jadval vositasida umumlashtiriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida xususiy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar kontekstida mazkur modellarning mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari xususiy maktab rahbarlari, o‘qituvchilar, o‘quv dasturlari ishlab chiquvchilari va ta’lim menejerlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: liderlik (yetakchilik) kompetentsiyasi, xususiy maktab, IB dasturi, Montessori pedagogikasi, STEM ta’lim, kompetentsiyaviy yondashuv, o‘quvchi shaxsi, ta’lim modellari.



Abstract: This article presents a comparative analysis of contemporary pedagogical approaches to the formation of leadership competency among students in private schools, focusing on the International Baccalaureate (IB), Montessori, and STEM educational models. The relevance of the study lies in the fact that twenty-first-century educational standards increasingly demand not only subject-based knowledge but also the consistent development of leadership skills such as initiative, independent decision-making, effective teamwork, communication, and responsibility. Based on an analysis of theoretical and empirical literature, the article reveals the philosophical foundations and pedagogical mechanisms of each model and their influence on the formation of students' leadership competency, summarizing the findings in a comparative table. The possibilities of adapting these models to local conditions are also examined in the context of regulatory documents on the development of private education in the Republic of Uzbekistan. The results are of practical value for private school administrators, teachers, curriculum developers, and education managers.

Keywords: leadership competency, private school, IB programme, Montessori pedagogy, STEM education, competency-based approach, student personality, educational models.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda bitiruvchidan nafaqat chuqur fanviy bilim, balki noaniqlik sharoitida qaror qabul qila olish, jamoani boshqarish, tashabbus ko'rsatish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi shaxsiy-ijtimoiy kompetentsiyalar ham talab etilmoqda. Shu bois liderlik kompetentsiyasini maktab yoshidanoq shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida xususiy ta’lim muassasalari tarmog‘ining kengayishi, xususan, Prezidentning 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-son qarori [15] hamda 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [14] doirasida ta’lim sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish vazifasi belgilangan. Ushbu jarayonda xususiy maktablar xalqaro pedagogik modellarni — jumladan, IB, Montessori va STEM yondashuvlarini faol joriy etmoqda. Biroq mazkur modellarning liderlik kompetentsiyasini shakllantirishdagi o‘ziga xos mexanizmlari, ustuvor tomonlari va cheklovlari haligacha yetarlicha qiyosiy tahlil qilinmagan, bu esa tadqiqot mavzusining ilmiy-amaliy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – xususiy maktablarda keng qo‘llanilayotgan IB, Montessori va STEM ta’lim modellarining o‘quvchilarda liderlik kompetentsiyasini shakllantirishdagi pedagogik mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. “Liderlik kompetentsiyasi” tushunchasining nazariy-metodologik mazmunini ochib berish;
2. IB, Montessori va STEM modellarining falsafiy asoslari va pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish;
3. Ushbu modellarni liderlik kompetentsiyasini shakllantirish mezonlari asosida qiyoslash;
4. Xususiy maktablar amaliyoti uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – xususiy maktablarda o‘quvchilarning liderlik kompetentsiyasini shakllantirish jarayoni; predmeti IB, Montessori va STEM modellarining ushbu jarayonga ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik vositalari va mexanizmlari.



ADABIYOTLAR TAHLILI

“Liderlik kompetentsiyasi” tushunchasi zamonaviy pedagogika va boshqaruv fanlarida ko‘p qirrali talqin qilinadi. B. Bass va R. Riggio tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion liderlik nazariyasiga ko‘ra, yetakchilik – bu boshqalarni yuqori maqsadlar sari ilhomlantirish, individual e‘tibor ko‘rsatish va intellektual rag‘batlantirish qobiliyati bo‘lib, u tug‘ma xususiyat emas, balki maqsadli tarbiya va muhit ta‘sirida shakllantiriladigan kompetentsiyadir [1, p. 23]. D. Goleman esa liderlikni hissiy intellekt bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash va munosabatlarni boshqarish ko‘nikmalarini yetakchilik kompetentsiyasining tarkibiy qismlari sifatida belgilaydi [2, p. 45]. Bu ikki nazariya maqolada tahlil qilinayotgan uchala ta‘lim modelini baholash uchun umumiy nazariy asos vazifasini o‘taydi.

J. Xetti tomonidan olib borilgan 800 dan ortiq meta-tahlillarga asoslangan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining o‘z ta‘lim jarayoniga faol ishtiroki va o‘z-o‘zini boshqara olish qobiliyati akademik natijalarga nisbatan yuqori ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan omillar qatoriga kiradi, bu esa liderlik kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir [12, p. 34]. Mahalliy pedagogika fanida N.A. Muslimov va boshqalarning tadqiqotlarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda kompetentsiyaviy yondashuvning bosqichma-bosqich, amaliyotga yo‘naltirilgan xarakteri asoslab berilgan [13, p. 10]. Ushbu yondashuv liderlik kompetentsiyasini ham nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat jarayonida shakllantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikma sifatida talqin qilish imkonini beradi.

IB tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “O‘quvchi profili” (Learner Profile) hujjatida tadqiqotchi, bilimdon, fikrlovchi, kommunikativ, tamoyilli, ochiq fikrli, g‘amxo‘r, xavf-xatarga tayyor, muvozanatli va mulohazali bo‘lish kabi o‘nta atribut belgilangan bo‘lib, ular jamlanganda shaxsning global fuqarolik va yetakchilik uchun zarur bo‘lgan asosiy sifatlarini tashkil etadi [3,

p. 2]. H. Özkeskinning IB dasturlari doirasida olib borgan tadqiqotida IB muhiti maktab yetakchilarining hayot bo‘yi o‘quvchi sifatida rivojlanishiga va ularning liderlik salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan [4, p. 6].

Montessori pedagogikasining asoschisi M. Montessori o‘zining “Singdiruvchi ong” asarida bolaning tug‘ma faollik va mustaqillikka intilishini ta’kidlab, tarbiyachining vazifasi bolani boshqarish emas, balki unga mustaqil tanlov qilish va o‘z xatolaridan o‘rganish uchun tayyor muhit yaratishdan iborat ekanligini asoslaydi [5, p. 87]. “Montessori metodi” asarida esa aralash yoshdagi sinflarning tashkil etilishi katta yoshdagi o‘quvchilarning kichiklarga murabbiylik qilishi orqali tabiiy ravishda liderlik va mas’uliyat hissini rivojlantirishi ko‘rsatiladi [6, p. 112]. A. Lillard o‘zining “Montessori: daholik ortidagi fan” nomli monografiyasida zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar Montessori metodining ijro etuvchi funksiyalar, ya’ni rejalashtirish, diqqatni boshqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi liderlik uchun zarur bo‘lgan kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishini tasdiqlashini yozadi [7, p. 151].

STEM ta’lim modeli borasida AQSh Milliy tadqiqotlar kengashining hisobotida fanlararo integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchilarda muammoni hal qilish, loyihalarni boshqarish va jamoaviy ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [8, p. 32]. R. Baybi esa STEM ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida o‘quvchilarda ilmiy-texnik loyihalarni boshqarish jarayonida amaliy yetakchilik tajribasini shakllantirishni belgilaydi [9, p. 58]. J. DeLisi, E. Liu va E. Fildsning shahar maktablari STEM yo‘nalishlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotida sanoat vakillari bilan hamkorlikdagi loyihaviy faoliyat o‘quvchilarda loyiha maqsadlarini shakllantirish, jamoani muvofiqlashtirish va aloqa vositalaridan foydalanish kabi amaliy liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirganligi qayd etilgan [10, p. 14]. Shu bilan birga, Vithanage va boshqalarning tadqiqotida loyihaviy STEM kurikulumi XXI asr ko‘nikmalarining to‘rtta asosiy komponenti — tanqidiy

fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya darajasini sezilarli darajada oshirganligi statistik jihatdan tasdiqlangan [11, p. 6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, kontent-tahlil hamda tizimli yondashuv qo'llanildi. Har bir model quyidagi to'rtta mezon asosida tahlil qilindi: 1) falsafiy-pedagogik asos; 2) liderlik kompetentsiyasini shakllantiruvchi asosiy mexanizm; 3) baholash va monitoring tizimi; 4) xususiy maktab sharoitida joriy etish imkoniyatlari va cheklovlari. Manba sifatida IB, Montessori va STEM modellariga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari hamda amaliy tadqiqotlar natijalari qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

IB modelida liderlik kompetentsiyasini shakllantirish

IB dasturining o'zagini tashkil etuvchi "O'quvchi profili" tizimida liderlik alohida fan sifatida emas, balki barcha o'quv fanlari va CAS (ijodkorlik, faollik, xizmat) komponenti orqali uzluksiz shakllantiriladigan integrativ sifat sifatida qaraladi [3, p. 3]. O'quvchilar loyihalarni mustaqil tashabbus asosida boshlash, jamoat oldida hisobot berish va xalqaro miqyosdagi muammolarni tahlil qilish orqali strategik fikrlash, muzokaralar olib borish va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi [4, p. 9]. IB modelining ustunligi uning tizimliliigi va xalqaro darajada standartlashtirilganligida, cheklovi esa yuqori resurs talabchanligi va o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligini talab qilishida namoyon bo'ladi.

Montessori modelida liderlik kompetentsiyasini shakllantirish

Montessori tizimida liderlik kompetentsiyasi tashqi ko'rsatmalar orqali emas, balki bolaning ichki motivatsiyasi va mustaqil tanlov erkinligi orqali "tabiiy" tarzda shakllantiriladi [5, p. 90]. Aralash yoshdagi sinflar tuzilishi katta o'quvchilarga kichiklarga murabbiylik qilish, ularga yordam berish va namunaviy xulq-atvor ko'rsatish imkoniyatini beradi, bu esa erta yoshdanoq



mas'uliyat va empatiyaga asoslangan liderlik uslubini shakllantiradi [6, p. 115]. Bu model, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida samarali, biroq yuqori sinflarda murakkab jamoaviy loyihalarni boshqarish va raqobatbardosh muhitda strategik qaror qabul qilish tajribasini berishda IB va STEM modellariga nisbatan cheklangan imkoniyatlarga ega.

STEM modelida liderlik kompetentsiyasini shakllantirish

STEM modelida liderlik kompetentsiyasi, birinchi navbatda, loyihaviy-tadqiqot faoliyati jarayonida shakllantiriladi: o'quvchilar guruh bo'lib texnik yoki ilmiy muammoni aniqlaydi, resurslarni taqsimlaydi, vazifalarni bo'lib oladi va yakuniy natijani taqdim etadi [8, p. 35]. Bunday amaliyot o'quvchilarda loyiha boshqaruvi, xavflarni baholash va jamoaviy qaror qabul qilish kabi real hayotdagi liderlik vaziyatlariga yaqin ko'nikmalarni rivojlantiradi [10, p. 16]. STEM modelining afzalligi uning amaliy va o'lchanadigan natijalarga yo'naltirilganligida, ammo bu model ko'pincha texnik kompetentsiyalarga urg'u berib, hissiy intellekt va axloqiy jihatlarni IB va Montessori modellariga qaraganda kamroq izchil rivojlantiradi.

Qiyosiy tahlil

Uchala modelning liderlik kompetentsiyasini shakllantirishdagi asosiy jihatlari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Mezon	IB modeli	Montessori modeli	STEM modeli
Falsafiy asos	Xalqaro fuqarolik, bilim integratsiyasi [3, p. 2]	Bolaning tabiiy mustaqilligi va ichki motivatsiyasi [5, p. 87]	Fanlararo amaliy muammo yechish [8, p. 32]



Mezon	IB modeli	Montessori modeli	STEM modeli
Asosiy mexanizm	CAS loyihalari, “O‘quvchi profili” atributlari [4, p. 6]	Aralash yoshdagi sinf, murabbiylik amaliyoti [6, p. 112]	Guruhli loyiha va dizayn-fikrlash jarayoni [11, p. 6]
Shakllantiriladigan asosiy sifatlar	Strategik fikrlash, axloqiy qaror qabul qilish, muloqot [2, p. 45]	Mas’uliyat, empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish [7, p. 151]	Loyiha boshqaruvi, hamkorlik, tanqidiy fikrlash [11, p. 6]
Eng samarali bosqich	O‘rta va yuqori sinflar	Maktabgacha va boshlang‘ich sinflar	O‘rta va yuqori sinflar
Asosiy cheklov	Yuqori resurs va kadr talabchanligi	Yuqori sinflarda murakkab loyihalarni boshqarish tajribasi yetishmasligi	Hissiy-axloqiy tarbiyaga nisbatan kam e’tibor

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, uchala model ham liderlik kompetentsiyasini turlicha, lekin bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar orqali shakllantiradi. IB –kognitiv-axloqiy, Montessori – ijtimoiy-emotsional, STEM esa amaliy-boshqaruv yo‘nalishidagi liderlik ko‘nikmalariga alohida urg‘u beradi.



O‘zbekiston xususiy maktablari konteksti

“Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da o‘quvchilarning individual salohiyatini rivojlantirish va innovatsion ta’lim shakllarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [14]. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistondagi xususiy maktablar uchun uchala modelning elementlarini uyg‘unlashtirgan integrativ yondashuv ya’ni boshlang‘ich bosqichda Montessori tamoyillaridan, o‘rta bosqichda STEM loyihaviy faoliyatidan, yuqori bosqichda esa IB tipidagi CAS va tadqiqot loyihalaridan foydalanish milliy ta’lim tizimi sharoitida liderlik kompetentsiyasini bosqichma-bosqich va uzluksiz shakllantirish uchun maqbul strategiya bo‘lishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, IB, Montessori va STEM modellari liderlik kompetentsiyasini shakllantirishda bir-biridan farqli, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi pedagogik yo‘llardan foydalanadi. Xususiy maktablarda liderlik kompetentsiyasini samarali shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida Montessori tamoyillari asosida mustaqillik va mas’uliyatning ichki motivatsion asoslarini shakllantirish;
2. O‘rta bosqichda STEM yo‘nalishidagi loyihaviy faoliyat orqali amaliy boshqaruv va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3. Yuqori bosqichda IB tipidagi CAS komponentlari va tadqiqot loyihalari orqali strategik fikrlash va axloqiy yetakchilikni mustahkamlash;
4. Har uchala model elementlarini birlashtirgan mahalliy kurikulum modelini ishlab chiqish va uni O‘zbekiston xususiy maktablari amaliyotida sinovdan o‘tkazish.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu integrativ modelning amaliy samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali baholash dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bass B.M., Riggio R.E. Transformational Leadership. – 2nd ed. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. – 282 p.
2. Goleman D. Leadership: The Power of Emotional Intelligence: Selected Writings. – Northampton, MA: More Than Sound, 2011. – 288 p.
3. International Baccalaureate Organization. Learner Profile [Electronic resource]. – Geneva: IBO, 2013. – 4 p. URL: <https://ibo.org/contentassets/fd82f70643ef4086b7d3f292cc214962/learner-profile-en.pdf> (murojaat sanasi: 29.08.2026).
4. Özkeskin H. Leading with an IB mindset: Cultivating leadership skills in the international baccalaureate programmes [Electronic resource] // ResearchGate, 2024. URL: <https://www.researchgate.net/publication/378582763> (murojaat sanasi: 29.08.2026).
5. Montessori M. The Absorbent Mind / transl. by C.A. Claremont. – New York: Henry Holt and Company, 1995. – 316 p.
6. Montessori M. The Montessori Method / transl. by A.E. George. – New York: Schocken Books, 1964. – 376 p.
7. Lillard A.S. Montessori: The Science Behind the Genius. – 3rd ed. – New York: Oxford University Press, 2017. – 411 p.
8. National Research Council. STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research. – Washington, DC: The National Academies Press, 2014. – 254 p.
9. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunity. – Arlington, VA: NSTA Press, 2013. – 200 p.
10. DeLisi J., Liu E., Fields E. Implementing Project-Based Learning in Urban High School STEM Career Pathways [Electronic resource] // SAGE



Journals, 2025. DOI: 10.1177/00420859231214174 (murojaat sanasi: 29.08.2026).

11. Vithanage S. va boshq. Evaluating the Effectiveness of a Project-Based STEM Curriculum in the Acquisition and Development of 4Cs of 21st-Century Skills [Electronic resource] // School Science and Mathematics, 2025. URL: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/ssm.18388> (murojaat sanasi: 29.08.2026).

12. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 392 p.

13. Muslimov N.A. va boshq. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: TDPU rizografi, 2013. – 124 b.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. – Toshkent, 2019.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-son Qarori. – Toshkent, 2017.

